



TEXT AND PROVERB

Mahfuza Shamsimatova

Master degree 2nd-year, Department of classical philology, Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article is devoted to the analysis of the famous Persian-Tajik poet Nizami Ganjavi's epic poem "Khusrav and Shirin" by Qutb Khorazmi and the analysis of the proverbs used in it. In the introductory part of the article, the role and peculiarities of folk proverbs as a literary genre are studied. The main part of the article talks about excerpts from the epic "Khusrav and Shirin" and the proverbs used in them. The proverbs used in the work are compared with their contemporary counterparts, and they are deeply analyzed. At the end of the article, conclusions are given based on passages and proverbs taken from the epic and thoroughly studied.

Key words: Qutb Khorezmi, "Khusrav and Shirin" epic, folklore, proverb, wise words.

MATN VA MAQOL

Shamsimatova Mahfuza Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ulug' fors-tojik shoiri Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub "Xusrav va Shirin" dostonining Qutb Xorazmiy tomonidan turkiy tilga qilingan tarjimasi va unda qo'llangan maqollar tahliliga bag'ishlangan. Maqolaning kirish qismida xalq maqollarining adabiy janr sifatidagi o'rni va o'ziga xosliklari o'rganiladi. Maqolaning asosiy qismida "Xusrav va Shirin" dostonidan olingan parchalar va ularda qo'llangan

maqollar haqida so'z yuritiladi. Asarda foydalanilgan maqollar bugungi kundagi muqobili bilan qiyoslangan bo'lib, ular chuqur tahlilga tortilgan. Maqola yakunida dostonidan olingan va atroflicha o'rganilgan maqollar qo'llangan parchalardan kelib chiqqan holda xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Qutb Xorazmiy, "Xusrav va Shirin" dostoni, xalq og'zaki ijodi, maqol, hikmatli so'zlar.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу эпической поэмы известного персидско-таджикского поэта Низами Гянджеви «Хусрав и Ширин» Кутба Хорезми и анализу использованных в ней пословиц. Во вступительной части статьи изучаются роль и особенности народных пословиц как литературного жанра. Основная часть статьи рассказывает об отрывках из эпоса «Хусрав и Ширин» и использованных в них пословицах. Пословицы, использованные в произведении, сравниваются с современными им аналогами и глубоко анализируются. В конце статьи даны выводы на основе отрывков и пословиц, взятых из эпоса и тщательно изученных.

Ключевые слова: Кутб Хорезми, эпос «Хусрав и Ширин», фольклор, пословица, мудрые слова.

Maqol – xalq og'zaki ijodining eng kichik janrlaridan biri bo'lib, unda muayyan millatning hayotiy tajribalari, rang-barang urf-odatlar, bosib o'tgan hayot yo'li haqidagi xulosalari o'z aksini topgan. Maqollarda kishilarning turmush tarzi, azob-uqubatlari va baxt-quvonchlari, ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib, kishilar hayotidagi mayda-chuyda nuqsonlarigacha bo'lgan turfa xil mavzular, o'ziga xos hukmlar pand-nasihat ruhida ifodalangan.

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz,

Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida, qanchadan-qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz [1, b.3].

Maqollardan badiiy asarda unumli va o'rinli foydalanish ijodkordan katta bilim va tajribani talab etadi. Negaki, mavzuga mos qo'llanilgan maqol asar badiiyatini oshirgani, uning tilini shirali qilganidek, noo'rin qo'llangan maqol asar mazmunini muallif kutmagan nuqtaga burib yuborishga qodir. Xalq og'zaki ijodining bu kichik janridan o'z asarida unumli va o'rinli foydalangan ijodkorlardan biri Qutb Xorazmiydir.

Qutb Xorazmiy turkiy tilga tarjima qilgan "Xusrav va Shirin" dostonida o'nlab xalq maqollaridan foydalangan. Maqollar vaqti-vaqti bilan dostonning turli boblarida qo'llaniladi. Dostonda keltirilgan maqollar mavzu ko'lami va ifoda tarziga ko'ra rang-barang bo'lib, asar mazmunini, qahramonlar ruhiyatini to'laqonli yoritib berishga xizmat qilgan. Ular ayni paytda o'zbek tilining o'z davridagi nodir durdonalari sifatida ham e'tiborga molikdir.

Erur chin tilku yanglig' dunyo makkor,

Bu dunyo aldog'ing'a kirma zinhor.

Kishikim dunyoga aldandi qoldi,

Yaqin bilgilkim ul terkin yo'qoldi.

Qatig'lan bo'lma bu ojunqa mag'rur,

Kim ul mag'rurluq (ul) boshingni yonur.

Qachon ish tushsa qilg'il yaxshi tadbir,

Vale bilgil buzar tadbirni taqdir [2, b.452].

Bahromning o'limi munosabati bilan kelgan chopar shoh Parvizga xabarni yetkazish barobarida, bir qancha o'git va pand-nasihatlarini unga bayon qiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan misralar ayni shu mazmunda bo'lib, dostonning "Xusrav sultonligining sifati yema

Bahrom o'limini Xusrav eshitgani" sarlavhali bobidan olingan. Dunyo haqidagi hikmatlarni o'zida aks ettirgan parchada, dunyo tulkiga qiyos qilinmoqda. Tulkinning ishi makrdan iboratligi esa hammaga ma'lum. Misralar davomida dunyoga ko'p ham berilmaslik, "mag'rurluq" qilmaslik kerakligi aytiladi. Bayt so'nggida qachon vaqti bo'lishi bilan yaxshi tadbir qilish kerakligi, biroq tadbirni taqdir buzishini ham unutmaslik kerakligi eslatib o'tiladi. Ushbu keltirib o'tilgan hikmat bugungi kunimizdagi "Tadbirning yengi bilan taqdirni yashirib bo'lmas"[1,b.400] maqoliga mos keladi. Bahromdek odam ham qanchalik shon-shuhratga, obro'-e'tiborga sazovor bo'lsa ham, oxir-oqibat vafot etdi. Shunday ekan, uning o'rniga keladiganlar ko'zini kattaroq ochishi, bundan tegishli xulosa chiqarishi lozim. Zero, Bahromdek odamni tezgina o'tkazib yuborgan olam boshqalarni ham tutib turmaydi. Qutb Xorazmiy ana shu g'oyani ifodalash uchun maqollardan foydalangan.

Unutma barcha holda o'z choqing bil,

Ne yerda bo'lsa o'z haddingcha tiril.

Bilursankim charog' yog'din olur nur,

Choqindin oshsa qayta yog' o'q o'churur.

Tuzi oz bo'lsa oshning tatg'i bo'lmaz,

Agar ko'p bo'lsa tuz ham zavqi qolmaz.

Qamug' ish ichra san andoza saqla,

Ne ishkim qilsang o'z holingg'a choqla [2, b.452].

Shohga qarata aytilayotgan yuqoridagi misralarda kishi har qanday holatda ham o'z haddini bilishi kerakligi ifodalangan. Baytda o'rtaga tashlangan yaxlit bir fikr – "o'z haddini bilish", ketma-ket va rang-barang misollar orqali izohlangan. Charog' yog'dan nur olishi, nojo'ya harakat orqali o'z nurini yo'qotishi; tuzi oz bo'lgan oshning mazasi bo'lmaganidek, uning ko'pidanam inson huzurlana olmasligi shular jumlasidandir. Bular she'riy shakllarga solingan maqollarning aynan o'zi bo'lib, muallif o'rni-o'rni bilan

navbatda kelayotgan fikr-mulohazalarning maqol ekanligini alohida ta'kidlab, eslatib o'tadi.

Gilimunga ko'ra ko'sul ayoqni,

Yo'q ersa yersan ongsizda tayoqni.

Bilur ishingdin ortuq urmag'il lof,

Kim oltunchiliq etmas bilsa buryobof.

Eshitkim ne masal aydi hunarmand,

Halila bo halila qand ham qand [2, b.453].

Yuqoridagi keltirib o'tilgan misralardan shu anglashiladiki, muallif asarning bu o'rnida maqollardan unumli foydalangan. Bayt boshida qo'llangan "Gilimunga ko'ra ko'sul ayoqni" misrasi bugungi kunimizdagi "Ko'rpangga qarab oyoq uzat"[1, b.420] maqolining aynan o'zi. Bu maqol xalqimiz orasida: "Loydan holva ajratib bo'lmas", "Behuda kuchanish belni sindirar", "Behuda harakat beburd qilar"[1, b.378] maqollari bilan yonma-yon foydalaniladi. Ushbu maqol, odatda, kishi qo'lidan kelgan ishigagina bel bog'lashi, qo'lidan kelmas ishga chiranmasligi, chiranish oqibati voy bo'lishi kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Muallif ham ushbu fikrlarni asar davomida alohida ta'kidlab o'tadi: "Bilur ishingdin ortuq urmag'il lof". Chopar shohga nasihat qilish barobarida, butun insoniyatga murojaat qilgandek tuyuladi. Misraning davomida ijodkor uning oqibatidan ham ogohlantiradi: "Yo'q ersa yersan ongsizda tayoqni". Dostonning ushbu o'rnini o'qish barobarida, beixtiyor Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridan o'rin olgan "Maymun bilan Najjor"[3] masali yodga keladi. Najjorning kasbini oson bilib, uni qilishga jazm qilgan Maymun alaloqibat dumidan ayrilib, kishilarga mazah bo'ladi. Maymun ham Najjorning kasbiga sho'ng'ib jabr ko'radi, ham insonlarning dashnomlari orasida qoladi. Yuqorida keltirib o'tilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, kishi qo'lidan kelgan ishigagina bel bog'lashi lozim. Qo'lidan kelmas ishga urinishning oqibatlari ko'ngilsiz hodisalar bilan yakunlanishi mumkin. Endi navbatdagi maqolga e'tibor beraylik.

Kuzaz o'z martabangdin kechma yuksak,

Fuzulluq qilma o'z o'rningda tur tek [2, b.453].

Keltirilgan misralar kishini o'z haddidan oshmasligiga, o'z o'rini doim yaxshi bilishi kerakligiga ishora qiladi. Ushbu parcha xalqimiz orasida ko'p qo'llaniladigan "Yo'q narsa bor bo'lar, kamtar bo'lsang, Bor narsa yo'q bo'lar, manman bo'lsang"[1, b.185], "Narvonga chiqsang shoshmay chiq, O'z haddingdan oshmay chiq"[1, b.397] kabi maqollarga mos keladi. Kishi haddini va o'rini bilmasligi, uni oxir-oqibat kibr va manmanlikka yetaklashi mumkin. Ba'zi insonlarga xos bo'lgan bu kabi yomon odatlar va illatlarning insoniyatga va jamiyatga nojo'ya ta'siri mumtoz adabiyotimizdan o'rin olgan, tarkibida maqollar qo'llangan boshqa ko'plab asarlarda ham qalamga olingan.

G'arib darvishni zinhor ko'rmagil xor,

Kim aning ham yerinda izzati bor.

Ko'r o'z aybung, azindin izlamagil,

Kishi aybin qatig'lan ko'zlamagil.

Hunar ko'rgil ayb ko'rguncha zinhor,

Chechak ter bog'qa kirsang, olmag'il xor.

Ayblama ko'rub tovu azaqin,

Ko'rub tahsin qilg'il zog' qaroqin.

Agar yuz ayb bo'lsa bir hunar ham,

Nazar aybinga qilma, ko'rgil erdam [2, b.454].

Yuqorida keltirib o'tilgan parcha ayb qidirmaslik haqida bo'lib, u misralar davomida turli xil misollarni o'rtaga tashlash orqali ketma-ket va rang-barang izohlanadi. Bayt boshidagi birinchi misrada shohga g'arib darveshni xor qilmaslik uqtirilsa, keyingi misrada "aning ham yerinda izzati bor" deya darveshning ham o'zi qatori kishilar orasida yetarli obro'-e'tiborga ega bo'lishi mumkinligiga ishora qilinadi. Darvesh haqida so'z borar ekan, o'rtaga endi asosiy muammo tashlanadi: "Ko'r o'z aybung, azindin izlamagil, Kishi aybin

qatig'lan ko'zlamagil." Ushbu misralar xalqimiz o'rasida ko'p qo'llaniladigan "Avval o'zingga boq, so'ngra nog'ora qoq"[1, b.333] maqoliga hamohangdir. Ba'zi kishilar o'zlarining hayotlari qolib, boshqa bir insonlarning hayotini mulokama qiladilar, kezi kelsa ulardan ayb ham qidiradilar. Bu inson zotidagi eng yomon odatlardan biridir. Bayt davomidagi misralarda ham ana shu ma'no ifodalangan. Qutb o'z fikrini yanada yuqoriroq darajaga ko'tarish uchun maqollardan foydalangan. "Hunar ko'rgil ayb ko'rguncha zinhor", "Ayblama ko'rub to'vus azaqin", "Nazar aybinga qilma, ko'rgil erdam" kabi misralar she'riy shaklga solingan hikmatlarning aynan o'zidir.

Soqinkim bo'lmasun hech do'st dushman,

Agar bo'lsa san andin yaxshi saqlan.

Kichik teb bermagil dushmanqa fursat,

Ulug' bo'lur qachonkim topsa ruxsat [2, b.454].

Navbatdagi misralar do'stlik haqida bo'lib, unda do'st va dushmanning farqi, do'stlikka nomunosib kishilarga xos sifatlar va qanday kishilar bilan do'st tutinishdan saqlanish kerakligi yoritib berilgan. Misralar davomida dushman xoh katta bo'lsin, xoh kichik bo'lsin birdek e'tibor berish kerakligi aytiladi. Negaki, kichik sanalgan dushman vaqti keldi deguncha, kutilmagan hiyla bilan kishini dog'da qoldirishi mumkin. Baytdan o'rin olgan misralar bugungi kundagi "Asli dushman do'st bo'lmas, qaynab qoni qo'shilmas", "Asli dushman el bo'lmas, etak kessang, yeng bo'lmas"[1, b.94] kabi maqollar bilan hamohangdir. Ushbu maqollar orqali esa dushman hech qachon do'st bo'la olmasligi, har qanday dushmanga baho berishda xushyor va e'tiborli bo'lish kerakligi anglashiladi.

Umuman olganda, keltirilgan parchalarga asoslanib "Xusrav va Shirin" dostonida bir necha o'nlab maqol va hikmatlar o'rin olgan va ular bugungi kunda tilimizda ko'p qo'llaniladigan maqollarning aynan o'zi, yoki maqollar darajasidagi hikmatlar degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ular mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, dostonning badiiyatini oshirishda, muallif o'rta tashlagan g'oya va fikrni osonroq tushinishda katta rol o'ynagan. Albatta, bu maqollarni she'riy parchaga solish va o'z o'rnida qo'llay olish

Qutb Xorazmiyning badiiy mahorati bilan bog'liq. Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostonini o'rganish, asarning yangi badiiy qirralarini tadqiq etish bugungi kun adabiyotshunosligimizning ustuvor va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: "Sharq", 2005.
2. Zarif H. Qutb Xorazmiy "Xusrav va Shirin" (Nizomiydan tarjima). – Toshkent: "G'ofur G'ulom", 1986.
3. Gulxaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: "G'ofur G'ulom", 1974.